

DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

Abdunazarov Elyor

Termiz davlat universiteti “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” 2-bochqich talabasi

Anotatsiya. Bugungi kunda butun dunyoda rivojlanayotgan mamlakatlar o‘z budjet mablag`larining katta qismini ijtimoiy sohaga sarflashadi. Darhahiqat, hozirgi vaqt O`zbekistonda ham budjet harajatlarining katta qismi ijtimoiy sohaga to`g`ri kelmoqda. Mamlakatimizda budjet defitsiti oshib borar ekan ijtimoiy siyosatni to`g`ri yo`lga qo`yish bugungi kunda bizning eng ustuvor yo`nalishimiz bo`lishi kerak.

Annotation. Today, developing countries all over the world spend a large part of their budget funds on the social sector. In fact, a large part of the budget expenditures in Uzbekistan also fall on the social sector. As the budget deficit in our country is increasing, the correct implementation of social policy should be our top priority today.

Kalit so`zlar: Ijtimoiy siyosat,budget taqchilligi,davlatning ijtimoiy siyosati,ijtimoiy to`lovlar, pensiya, foiz.

Keywords: Social policy ,budget deficit, state social policy, social payments, pension, interest.

2021 yilda COVID-19 ga qarshi kurash tadbirlari uchun ajratiladigan mablag`lar miqdori qayta ko‘rib chiqilgan va ko‘zda tutilgan 3 trln so‘mdan 4,3 trln so‘mga yetkazilgan.Shundan 1,4 trln so‘m miqdoridagi mablag`lar vaksina sotib olish va fuqarolarni emlash ishlarini tashkil etish tadbirlariga yo‘naltirilganligi aytilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma’lum qilishicha, mamlakatda 2016-yildan 2022-yilgacha ijtimoiy nafaqalarga ajratilayotgan mablag`lar hajmi 10 baravarga oshirilgan. Taqqoslash uchun, 2016-yilda 466 ming 500 oilaga 1 trillion 112 milliard so‘m yo‘naltirilgan. 2022-yilga kelib respublikada ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni 2,1 million nafardan ortgan va ularga qariyb 11,4 trillion so‘m ajratilgan. 2020yilda aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy himoyalashning yangi – ijtimoiy yordam va xizmatlarni “Temir daftар”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali ko‘rsatish tizimi joriy etildi. Bu uyma-uy yurilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga imkon qadar yordam ko‘rsatish ishlari ko‘lagini kengaytirdi. Vazirlik axborotiga ko‘ra, 2022-

yilning o‘zida mana shunday daftarlarga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat budgetidan 1,8 trillion so‘m mablag‘ sarflangan.

Qayd etilishicha, joriy yilning iyul oyi holatiga O‘zbekistonda yoshga doir nafaqa tayinlangan fuqarolar soni 79 238 nafarni tashkil etdi. Nogironlik nafaqasi oluvchilar 303 730 nafar, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi to‘lanayotganlar 54 177 nafarga yetgan. Agentlik xabariga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 2022-yilning iyun oyiga nisbatan 2 928 nafar (0,7 foiz)ga oshgan. Ayni paytda respublikada yoshga doir nafaqa ayollarga 60 yoshdan, erkaklarga 65 yoshdan tayinlanad. Mazkur turdagи nafaqaning bir oylik miqdori 648 000 so‘mni tashkil etadi

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a’zosi uchun nafaqa miqdori — oyiga 648 000 ming so‘m va keyingi har bir mehnatga qibiliyatsiz oila a’zosi uchun — 212 000 ming so‘mdan qo‘shib nafaqa to‘lanadi. 2024-yil yanvar–mart oylarida O‘zbekistonda kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, moddiy yordam va kompensatsiya to‘lovlari uchun davlat byudjetidan 4,3 trillion so‘m ajratildi. Bunda ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar o‘rtacha soni 1 million 736 mingtani tashkil etdi. Shundan 1 million 677 mingtasi bolalar nafaqasi, 58,9 mingtasi moddiy yordam olgan. Nafaqa to‘lovlari uchun jami 2 trillion 463 milliard so‘m yo‘naltirilgan. Shundan 2,4 trillion so‘mi kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, 67,5 milliard so‘mi moddiy yordam to‘lovlari uchun ajratilgan. Birinchi chorakda ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni jami oilalarga nisbatan 17,8 foizni tashkil etgan.



2024-yil uchun davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunda alohida qatorda ish haqi, pensiya, nafaqalar va ayrim turdagи xizmatlar tariflarining oshirilishi uchun 9,5 trillion so‘m mablag‘ ajratish rejalashtirilgan. Bu xarajatlar gaz oldi-sotdisidagi xarajatlardan mutlaqo boshqa yo‘nalishda. Qonunda 9,5 trillion so‘mdan 7,6 trillion so‘mi ish haqi,

pensiya va nafaqalar miqdorini oshirishga, qolgan 2 trillion so‘mga yaqini issiqlik ta’mnoti korxonalarimizga zararni qoplashga yo‘naltirilishi belgilangan.

Tabiiy gaz tariflari oshirilishi gaz yoqib suv qaynatadigan issiqlik ta’mnoti korxonalari xarajatining tannarxini oshiradi. Aholiga issiqlikn ni yetkazish xizmati uchun belgilangan narx korxona xarajatlariga nisbatan ancha past. Shuni hisobga olib, yil boshida mana shu yo‘nalishga ham mablag‘lar rejalahtirib ketilgan. Demak, 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ issiqlik ta’mnoti korxonalari zararini qoplashga yo‘naltiriladi.

2024-yilda Pensiya jamg‘armasiga 63 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan. Yanvar–avgust oylarida jami pensiya to‘lovlariga 40,2 trillion so‘m yo‘naltirildi. Sentyabrdan pensiyalar miqdori 15 foizga oshirilishi hisobiga yana qo‘srimcha 2,9 trillion so‘m ajratiladi. Mazkur mablag‘ qolgan 23 trillion so‘mga qo‘silib, yil oxirigacha to‘lab borilishi ma‘lum qilindi. Prezident farmoni bilan O‘zbekistonda 2024-yil 1-sentyabrdan pensiya va nafaqalar miqdori 15 foiz oshirildi. 1-oktyabrdan davlat tashkilotlari xodimlari, xususan, pedagoglar (oliy ta’limdan tashqari) va shifokorlar ish haqi 15 foiz, boshqa xodimlar oyligi 10 foiz ko‘tarildi.

Davlat byudjetining ayrim xarajatlari BHMga bog‘langan. Ya’ni BHM oshirilishi byudjetga qo‘srimcha 250 milliard so‘m atrofidagi xarajatlarni yuzaga keltiradi. Shundan eng katta qismi, ya’ni 80-90 foizi yetim bolalarni ta’lim jarayonidagi kunlik xarajatlarini qoplashga yo‘naltiriladi. BHM oshirilishi ularning ham kunlik xarajati, amaldagi narx-navo yoki inflatsiya darajasidan tushib ketmasligini oldini olishga yordam beradi. BHMning jarimlar, majburiy to‘lovlar yoki ayrim turdag‘ to‘lovlariga bog‘liqligi ham bor.

Markaziy bank boshqaruvi tomonidan 25.07.2024-yildan asosiy stavkani 0,5 % bandga pasaytirib, yillik 13,5 % darajasida belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi muddatida to‘lanmagan soliqlar uchun hisoblanadigan penya miqdorini kamaytiradi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga ajratilyotgan imtiyozli kreditlar foizlari ham tushganini anglatadi. Bu davlat harajatlariga qo‘srimcha yuklama tushirishi aniq.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib mamlakatimizda ijtimoiy sohaga mablag‘lar eng ko‘p ajratiladi. Biroq, bu mablag‘larni ustidan yetarlicha nazorat o‘rnatilmasa pullarni o‘zaro talon-taroj qilish avj olib ketadi. Bunday holatda budjet deficitni oshishi turgan gap. Mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ajratilyotgan imtiyozli past foizli kreditlardan

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

ma'lum bir miqdorda o'rta qatlamga ajratilganda o'rta qatlamning tadbirkorlik qobiliyatiga ega lekin mablag' yetarli bo'limgan qatlamini o'stirardi va qo'shimcha ish o'rirlari yaratilardi va ijtimoiy harajatlar ancha kamaygan bo'lar edi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

- 1.B.E.Mamaraximov, M.A.Mamatov. Iqtisodiy siyos.atga kirish. (O'quv qo 'lanma). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 -252 b
- 2.Боннет, А. А. Теоретические основы экономической политики / А. А. Боннет, А. Р. Тумашев. — Казань, 2003.
- 3.Богомолов, В. А. Экономическая политика: теория и практика антикризисного регулирования экономики. — М., 1999.
- 4.Вельфенс, П. Основы экономической политики. — СПб.: Дмитрий Буланин, 2002.
- 5.Ойкен, В. Основные принципы экономической политики: пер. с нем. / под ред. И. Цедилина, К. Херманн-Пиллата; вступ. слово О. Р. Лациса. — М.: Прогресс, 1995.
- 6.B.X.Azizkulov, B.K.Janzakov Iqtisodiy Siyosatga Kirish Samarqand – 2022